BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI DIFFERENSIAL TA’LIMGA TAYYORLASHNING ILMIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.

Xasanov Ergash Shonazarovich.

Angren Universiteti.”Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta’lim talabalarida differensial ta’lim faoliyati konikmalarini shakllantirish hamda egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakalarini rivojlantirishning ilmiy-psixologik jixatlari to‘g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: differensial ta'lim, individual yondashuv, psixologik xususiyatlar, individual qobiliyatlar va rivojlanish darajalari.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e’tibori va bu yo‘ldagi sa’y harakatlari bilan o‘lchanadi. Dunyo ta’lim standartlariga mos mutaxassislar tayyorlashning yuqori darajasini ta’minlash uchun sharoitlar yaratish, zamonaviy oliy ta’lim bitiruvchilarida differensial ta'lim faoliyatiga oid bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo‘lishi uchun zaruriy kasbiy tayyorlikni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y harakatlaridan biri-bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini differensial ta'lim faoliyatiga o‘rgatishning psixologik xususiyatlari muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma’lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir.Umumiy o’rta ta’lim- avvalo bolaning mantiqiy

tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda o'qituvchining tajribasi, metodlari va bilimidan ko'ra uning o'quvchiga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.
Bu o'rinda, albatta, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida psixologik muhit muhim ahamiyat kasb etadi.Masalan, fan o‘qituvchisi dars mashg’uloti jarayonida bolaning yosh xususiyatlari va psixik jarayonlari, shaxs xususiyatlarining rivojlanishini farqlay olishi, psixik jarayonlar (diqqat, nutq, sezgilar, idrok, xayol, xotira, tafakkur, hissiyot va boshqalar), psixik holatlar (emotsiyalar, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, e'tiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik, bardamlilik, tetiklik) va shaxs xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, iqtidor, mas'uliyat xarakter) yaxshi bilishi lozim.

Zamonaviy oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni differensial ta'lim faoliyatiga o‘rgatishda har bir talabaga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni va unga ishonch bildirishni taqozo etiladi. Qolaversa, tabaqalashtirilgan o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni differensial o‘qitishga tayyorlash jarayonida avvalo-refleksivlik tamoyili bilan ishlash mexanizmlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘lishini ta’minlanishi shart. Differensial ta’limni amalga oshirishda refleksivlik tamoyiliga tayanishning zarurati shundaki, ijodiy salohiyatga, kommunikativ fazilatlarga ega, tahlil qilishga tayyor, o‘z faoliyatini baholashga qodir, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarga tobora ko‘proq talab ortib bormoqda.

Mazkur tamoyil tabaqalashgan ta’lim jarayonida talabalarning faqat o‘z faoliyatining asoslarini aks ettirishi yetarli emas. Shuningdek, talabalar o‘quv

materiallarini o‘zlashtirishlari natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni kuzatib borishlari va ushbu o‘zgarishlarga qanday vositalar bilan erishmoqchi ekanliklarini tushunishlari zarur. Shuning uchun o‘quv tizimida talabalarda ushbu qobiliyatni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish vazifasi turibdi. Shu bois o‘qitishda talaba pozitsiyasini -o‘zini-o‘zi bilishga, o‘zini-o‘zi boshqarishga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga ahamiyat berish kerak. Ushbu fazilatlar refleksivlik tamoyilining o‘ziga xosligidir.

Bo‘lajak o‘qituvchini differensial o‘qitishga tayyorlashni tashkil etish hamda ushbu jarayonni amalga oshirishga imkon beradigan omil sifatida, turli tipologik guruh talabalari uchun differensial o‘qitish tamoyillarining aniq qo‘llanilishi maqsadga erishishni kafolatlaydi.Differensial ta’lim har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat pedagogik bilim va ko‘nikmalarni, balki psixologik bilimlarni ham talab etadi. Ma’lumki, maktab o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari,masalan idrok qilish xususiyati hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi, diqqatni uzoq vaqt davomida bir joyda ushlab turish qiyin kechishi, xotirasi obrazli va hissiy tajribalarga boy bo‘lishi kabi o‘quvchilarining yosh davrlariga xos psixologik xususiyatlarini bo‘lajak o‘qituvchilar yaxshi bilishi va dars mashg’ulotlarni qisqa, lekin mazmunli segmentlarga bo‘lish va turli faoliyat turlarini qo‘llash orqali tashkil qilish, yoki yangi ma'lumotlarni vizual materiallar va amaliy mashg‘ulotlar orqali yetkazish ularning eslab qolish qobiliyatini o’stirishi kabi asosiy omillarini hisobga olgan holda darsni tashkil qilishning ilmiy-metodik jixatlarini puxta egallashlari talab qilinadi.

Differensial ta'limda o‘qituvchining roli asosan Individual yondashuv orqali, ya’ni har bir o‘quvchining o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash va ularga mos ta'lim usullarini qo‘llash-asosiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo’ladi. Bu borada o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini muntazam ravishda o‘rganib borishi lozim. Bo’lajak o’qituvchi shaxsining

psixologik tayyorgarligi ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Psixologik bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo’lish bo’lajak o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularga mos yondashuvlarni tanlash va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi.

Shunday qilib, zamonaviy oliy ta’lim bitiruvchilarini differensial ta'lim faoliyatiga o‘rgatishda ularning psixologik tayyorgarligini oshirish, bolalar psixologiyasini chuqur o‘rgatish va egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko’nikmalarini shakllantirish juda muhim. Bu nafaqat ta'lim sifatini yaxshilashga, balki har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jalolova S.X. "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya"- T.: 2020 y

2.Pedagogika. /prof. M.To‘xtaxodjayevaning.umumiy tahriri ostida. -T.: 2010 y

3.Slastenin V.A, Mojar N.Ye. Diagnostika professional’noy prigodnosti molodyoji k pedagogicheskoy deyatel’nostey. – M.:Prometey, 1991 y

4. Ayzenk G.Yu. Ayzenk,M.V, "Differensial’naya psixologiya. Individual’nыye razlichiya.2006y

5.www.pedagog.uz